BADIIY ASARDA OBRAZ YARATISH MAHORATI

S.M.Karimova

Annotatsiya: Maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanlari haqida fikr yuritilgan. Inqiroziy tuzum davrida xalqning siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy holati yoritilgan. Bosh qahramon masalasiga munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: roman, realistik proza, obraz, syujet, yo‘nalish, g‘oya, natija, inqiroz

IMAGE CREATION SKILLS IN A WORK OF ART

S.M.Karimova

Abstract: The article discusses the novels “Days Gone” by Abdulla Qodiriy and “Night and Day” by Chulpon. The political, social, and spiritual situation of the people during the crisis regime is highlighted. The issue of the main character is addressed.

Keywords: novel, realistic prose, image, plot, direction, idea, outcome, crisis

O‘zbek adabiyotida romanlar, asosan, 20-asrning boshlarida paydo bo‘la boshladi. Bu davrda yosh avlod sanalgan jadidlar harakati badiiy adabiyotda ham o‘zgarishlarni vujudga keltirdi. Adabiyotda Yevropa, Sharq, rus adabiyotining ta’siri o‘laroq realistik proza shakllana boshladi. Realistik prozani vujudga kelishida davr va hayot masalalari ta’siri katta. Davr ro‘y bergan siyosiy o‘zgarishlar badiiy asarlada yangi voqealar ta’sirini vujudga keltirdi. Ayniqsa, roman janrining o‘zbek adabiyotiga kirib kelishi bevosita jadid ijodkorlari bilan bog‘liq. H.H.Niyoziy ijodini o‘rgangan olimlar ijodkorning “Yangi soadat yoxud milliy romon” yozganligi haqida ma’lumot beradilar. Lekin asar matni romanchilik talablariga javob bermaganligi haqida S.Mirvaliyev fikr yuritadi. “O‘zbek romani” deb atalgan ilmiy-nazariy kitobida romanchilik tarixiga keng to‘xtalgan. Shu sabab roman janrining paydo bo‘lishi bevosita Abdulla Qodiriy nomi bilan bog‘liq. “O‘tkan kunlar” romani o‘zbek adabiyotida yaratilgan dastlabki roman sifatida qabul qilindi va Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchiligining asoschisi deb tanildi.

Romanlarda qaysi davr haqida fikr yutilmasin ijodkor o‘z davri voqealari haqidagi fikrini singdirib yuboradi. Ya’ni romalar ikki ma’no tashiydi. Biri ijodkor faktlari bilan tahlilga tortgan davr haqida o‘zining obyektiv fikrini bildirsa, ikkinchi yashiringan ma’no o‘z davrida ro‘y berayotgan voqelariga munosabat bildiradi. Biz

(cc) BY

misol tariqasida “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” va Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanlari tahlili asosida fikrimizni isbotlashga harakat qilamiz. “O‘tkan kunlar” romanini 1919-yilda yozish ishlari boshlanib, 1925-yili xulosalanadi. Ikkinchi romani “Mehrondan chayon” esa 20-yillarning ikkinchi yarmida nashr qilingan. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanibo‘lsa 30-yillar mahsuli. Ya’ni romanlar sho‘rolar davrining davlat tepasiga kelgan vaqti, o‘tish davrida yaratilgan. Dastlabki romanlardagi tasvirda xonlar zamonidan olingan bo‘lsa, “Kecha va kunduz” romanida 1865-yilda Turkistonga kirib kelgan bosqinchilik siyosati voqealari haqida bahs yuritadi. Ijodkorlar niyatida umumiy birlik bor. Bu birlik davlat boshqaruv tizimining xalq manfaati asosida shakllanmaganligini badiiy ifodasidir. Bir uni quyidagi sxema asosida aniqroq ko‘rsatishimiz mumkin.

O‘tkan kunlar

Bosh g‘oya: davlat, jamiyat, fuqaro birligining amaldorlar manfaati uchun moslashtirilganligi. Boshqaruv tizimidagi siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy stkuturaning fuqoraparvar emasligi.

1. Millatning siyosiy haq-huquqlarining poymol qilinishi.
2. Millatning kelajagi bo‘lgan yoshlarga munosabatning nosozligi.
3. Buzg‘unchilik hukmronlik qilgan jamiyatda yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash

Natija: davlat boshqaruv tizimining nosozligi davlatni, jamiyatni,millatni, fuqaroni inqirozg aolib kelishi.

Bosh g‘oyani voqealar tizimida singdirish maqsadid uchta syujet yo‘nalishi asosida bir butunlik hosil qilgan. Otabek va Yusufbek Hoji syujet yo‘nalishida barcha obrazlar Otabek obraziga bevosita va bilvosita bog‘lanadilar. Davlat tizimidagi siyosiy voqealar tahlilga tortilib jamiyat va fuqaro birligiga ta’siri masalalari yoritiladi. Davlatni boshqarishdagi xatoliklar, noyetukliklar va fuqaroparvar emasligi voqealar asosida yoritiladi. Otabek va Kumush syujet yo‘nalishi esa har qanday romanga xos bo‘lgan muhabbat voqealarini qamrab olingandek ko‘rinadi, aslida jamiyatdagi yoshlarga munosabat masalasiga to‘xtalingan. Otabek va Kumush o‘z davrining yuqori saviyali yoshlari bo‘lib, ham axloqan, ham aqlan yetuk salohiyatga ega. Ular millatning kelajagi hisoblanadi. Millat vakillari hisoblangan yoshlar tizimning nosozligi tufayli fojeaga giriftor bo‘ladilar. Fojea faqat ona orzusi sababli emas, balki jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy nohaqliklar natijasidir. Hamma obrazlar vosita bilan yoki vositasiz Otabek obraziga kelib bog‘lanadilar.

Otabek va Homid syujet yo‘nalishida esa adabiyotning mangu muammolaridan biri yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash aks etadi. Davlat tizimini boshqarish, uni xalq va millat manfaatiga asoslanmaganligi ma’lum nuqtalarda yomonlikning ustun kelishiga olib keladi. Lekin xalq og‘zaki ijodida hamisha yaxshilik g‘olib kelganidek, romanda ham yaxshilik g‘alaba qozonadi. Homid ham jismonan, ham

(cc) BY

ma’nan mavf etiladi. Yuqoridagi uchta syujet yo‘nalishida ham birorta obraz taqdiri baxtli tugallanmaydi. Millatning kelajagi ramzi bo‘lgan Otabek va Kumush halokati millat fojeasi sifatida qabul qilinadi. Otabek ruslarga qarshi bo‘lgan erk va ozodlik kurashida halok bo‘ladi. Ijodkor bermoqchi bo‘lgan natija shunday: davlat, jamiyat, fuqaro butunligini boshqarish siyosati xalqparvar emas, shu sabab hamma qahramonlar hayotida fojea. Qo‘yilgan masala: davlat, jamiyat, fuqaro birligining amaldorlar manfaati uchun moslashtirilganligi, natija: davlat, jamiyat, fuqaroning baxtsizligi, qashshoqli, fojeaga yo‘liqishi. Demak, tizim nosoz bo‘lsa, xalq baxli bo‘la olmaydi, millat shakllana olmaydi.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida ham xuddi shunday voqeaga duch kelamiz. Roman 30-yillarning mahsuli bo‘lganligi sababli o‘sha davr uchun xos bo‘lgan ikki davrni qiyoslash maqsad qilib olingan. Rus istibdoti va sho‘rolar davrida davlat, jamiyat va fuqaro munosabati tahlilga tortilgan. Asarning ikkinchi qismi topilmagan bo‘lsada, “Kecha va kunduz” deb nomlanganligini e’tiborga olsak, fuqarolar hatotida ijobiy hodisalar ro‘y berishi kerak. 30-yillarda Oybekning “Qutlug‘ qon” romanida Yo‘lchi hayotidagi siyosiy fikrlarning rivojlanishi asar qahramoni bo‘lgan Zebi obrazida ham beriladi.

Yuqoridagi ta’riflarga asoslanganimizda asar g‘oyasi bosh qahramon obrazida mujassamlanadi. Roman bosh qahramon harakatlanadigan joy va bu makonga bosh qahramonning kirib kelishi bilan boshlanadi. Asarning bosh g‘oyasi davlat, jamiyat, fuqaro butunligidagi tizimni tahlil qilish. Shu asosda uch syujet yo‘nalishi yaratilgan. Dastlabki syujet liniyasi Miryoqub obrazi bilan bog‘liq. Ikkinchi syujet yo‘nalishi Akbarali mingboshi yo‘nalishi bilan bog‘liq asosiy syujet esa Zebi obrazi tarixi bilan bog‘liq. Zebi obrazi asar boshi voqealarga kirib kelib, asar so‘nggida surgun qilinish bilan tugallanadi. Oybekning “Qutlug‘ qon” romanida oddiy, sodda yigit Yo‘lchi obrazi asar oxirida siyosiy ongi yetilgan, kurashchi darajasiga yetgan jarayon tasvirlangan. “Kecha va kunduz” da esa Zebi sodda, dilbar, go‘zal, kamtar qiz shaklida voqealarga kirib keladi. Asar oxirida esa jamiyatdagi nohaqliklarni tushunish darajasida turgan ayol sifatida shakllanadi. Zebi obrazi orqali Cho‘lpon jamiyatdagi ayollar vakilasining hayotiga nazar soladi. Ayollarga past nazar bilan qarash, hattoki iste’dodini tan olmaslik, haq-huquqini nazar-pisand qilmaslik muammolarini yoritgan. Voqealarni mantiqiy nuqtai nazardan tushunishimiz bo‘yicha endigina jamiyatdagi buzg‘unchiliklarni anglay boshlagan Zebi surgunda o‘tgan hayoti davomida siyosiy fikrlaydigan bo‘lib qaytadi. Jamiyat hayotida o‘zining o‘rnini belgilab oladi va siyosiy jarayonlarda faol qatnashadi. Romanning nomlanishida ham bu fikr o‘z aksini topgan. “Kunduz” deb nomlanishi Zebi hayotida va jamiyat rivojida yorug‘lik paydo bo‘lishini ramziy ifodalaydi. 1927-yilda ayollarni jamiyatga aralashuviga yordam beruvchi “Hujum” kompaniyasining tashkil qilinganligi ham fikrimizni asoslaydi. Ijodkor sho‘rolar davrida mustamlakachilik

(cc) BY

sharoitida millatning vakil va vakilalari hayotini fojealarga yo‘liqishini ramziy ifodasini bermoqda. Boshqaruv tizimidagi davlat, jamiyat, fuqaro butunligida fuqaroning emas, balki davlat boshqaruvining ustunligini ko‘rsatib berishni maqsad qilib qo‘ygan.

Bosh g‘oya: mustamlakachilik sharoitida mamlakatda siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy tanazzulning vujudga kelishini aks ettirib berish.

1. Mustamlakachilik siyosatida nohaqlikning ayollar taqdirida yoritilishi.
2. Davlat tizimidagi tartibsizliklar jarayonida ma’naviy dunyoqarashni yo‘qolishi va moddiyatga ruju qo‘yish.
3. Mustamlakachilik tizimida ziyoli, dunyoqarashi keng qamrovli shaxslar o‘rniga, vazifasini no‘noqlik bilan bajaruvchilarni amalga qo‘yilishi.

Natija mustamlakachilik sharoitida yashagan millatning fojeaga yo‘liqishi, davlat, jamiyat, fuqaro butunligining buzilishi.

Miryoqub obrazi esa har qanday holatdava sharoitda ham faqat o‘zini moddiy jihatdan yaxshi yashashi uchun imkon axtargan obrazdir. Unda ijobiy fazilatlar ko‘rinmaydi. Millatning noyob adabiy yodgorliklarini o‘z manfaatini ko‘zlagan holda Noyib to‘raga hadya qiladi. Xalqning ziyoliy qatlamiga mansub bo‘lgan noyob qo‘lyozmalarni yana yetkazib berishga va’da qiladi. Bu harakati yo‘lida hattoki o‘z g‘ururini ham poymol qiladi. Eslaymiz, Noyib to‘ra uyida o‘tirgan bir paytda rus injineri kirib keladi. Millat vakiliga past nazar tashlab, salom berishga ham istamaygina vaziyat yaratadi. Miryoqub esa g‘ururini toptalganiga qaramasdan qarshilik bildirmaydi.

Akbarali mingboshi bilan bo‘lgan munosabatda hamma voqealar jarayonida o‘z manfaati muqtai nazaridan harakatlanadi. El ichida uning boyligi Akbarali mingboshining boyligidan ko‘pli haqida fikrlar yuradi. Manfaat nuqtai nazaridan mingboshining xotini Sultonxon bilan aloqaga kirishadi. Islovotxonada ham ayollarni birma-bir nazardan o‘tkazib, o‘zi tanlab olgandan so‘ng Akbaraliga yo‘naltiradi. Poyezd yo‘li qurilishi munosabati bilan sotib olgan yerlarni o‘z qiymatidan bir muncha yuqori narxda sotadi. Moddiyatan yaxshi yashash yo‘llarini tinimsiz izlaydi. Rus ayoli Maryam bilan chet elga chiqib ketish, o‘z o‘g‘lini uning tarbiyasiga berish rejasini tuzadi. Tanlov jarayinida jadidlar bilan ham suhbat quradi va yo‘lning qaysi biri yaxshiligini, ko‘p natijaga erishish yo‘lida rus ayoli bilan chetga chiqish va jadidlar hayoti yo‘llariga kirishni qiyoslaydi. Tahminimiz bo‘yicha Miryoqub Maryam bilan birga chet elga chiqib ketadi, u yerdagi yaxshi hayot o‘z boshini “ulug‘ ish” ga tikib qo‘ygan jadidlardan ustunroq kelishi tabiiy. Shu sabab Miryoqubni “Kecha va kunduz” romanining bosh qahramoni deb hisoblay olmaymiz.

Akbarali mingboshi esa chor Rossiyasining qurbonidir. Fikrlash doirasining torligi, duch kelgan muammolarni yechish jarayonida Miryoqubga tobedir. Belida tilla kamari, qilichi, zarbof to‘ni bo‘lmasa, qo‘ychuvonlarga o‘xshaydi. Bu

(cc) BY

xususiyatlar rus bosqinchilari uchun xalq orasidan chiqqan amaldorlar aqlli bo‘lmasligi kerak, siyosatga aralashmasligi kerak, buyurilgan vazifani bajarishi kerak va h.k. Natija shuki, xonlar zamonidan Abdulla Qodiriy ta’kidlaganidek, davlat tizimini boshqarish jarayonida jamiyat, millat, fuqaroning ahvoliga munosabat qanday bo‘lsa, Cho‘lponda ham xuddi shunday tasvirlanadi. Har ikki ijodkor jadidchilik harakatining namoyondasi sifatida o‘z davrida ham islohotlar zarurligi masalasini ko‘taradi. Millatni saqlab qolish uchun qayg‘urishadi, milliy davlatni barpo etish uchun jonlarini fido qiladi. Ha ikki asarning syujet voqealarida ham, kompozitsion qurilishida ham, obrazlarning tavsifida ham o‘xshashlik seziladi. Albatta, bu jarayonda yozuvchi uslubini tasvirlashdagi o‘ziga xos badiiy ifodasini unutmasligimiz kerak. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan sho‘rolar davlatida ham islohotlar o‘tkazilishi zaruriyatini ko‘ndalang qo‘yadilar. Hattoki, mustamlakachilik tuzumiga qarshi fikrlar beradilar. Romanlar faqat maishiy voqealar bayonidan iborat bo‘lib qolmasdan siyosiy fiklar jamuljami sifatida ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. Sulton Adabiyot nazariyasi T:. “O‘qituvchi” 1996
2. N.Xatamov, B.Sarimsoqov Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati T:. “O‘qituvchi” 1979
3. H. Umurov Adabiyotshunoslik nazariyasi T:. “Xalq merosi” 2004
4. D. Quronov Adabiyot nazariyasi asoslari T:. “Navoiy universiteti” 2018
5. A. Qodiriy O‘tkan kunlar www.ziyouz.com kutubxonasi
6. Cho‘lpon Kecha va kunduz T:. “Sharq” 2000

(cc) BY